NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-5]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Malikova Xurshida Ikramovna
A.Avloniy nomidagi pedagoglarini kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy tadqiqot instituti “Ta’lim menejmenti” kafedrasi dotsenti v.v.b.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK SURDOPEDAGOGLARNI METODIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada integrativ yondashuv asosida bo‘lajak surdopedagoglarni metodik kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalarini qo‘llash va amaliyotga tatbiq etish samaradorligini yoritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida integrativ yondashuv asosida bo‘lajak surdopedagoglarni metodik kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, kompetentlik, integrativ yondashuv, kompetentli yondashuv, bo‘lajak surdopedagoglar, metodik kompetensiyalar, texnologiyalar, ta’lim standarti, ta’lim sifati.*

Маликова Хуршида Икрамовна
Доцент кафедры «Менеджмент образования» Национального научно-исследовательского института повышения квалификации и подготовки педагогов им. А.Авлони

МЕТОДОЛОГИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ГЛУХИХ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ

Аннотация: *В данной статье описана эффективность применения и практической реализации технологий развития методических компетенций будущих учителей-суровых на основе интегративного подхода. Также на основе интегративного подхода в высших учебных заведениях разработаны предложения и рекомендации по внедрению технологий развития методических компетенций будущих глухих педагогов.*

Ключевые слова: *компетентность, компетентность, интегративный подход, компетентный подход, будущие глухие педагоги, методические компетенции, технологии, стандарт образования, качество образования.*

Malikova Khurshida Ikramovna
associate professor of the "Educational Management" department of the National Research Institute for professional development and training of pedagogues named after A.Avlony.

TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS OF THE DEAF ON THE BASE OF AN INTEGRATIVE APPROACH

Abstract: *This article describes the effectiveness of the application and practical implementation of technologies for the development of methodical competences of future teachers of the deaf based on an integrative approach. Also, based on an integrative approach in higher education institutions, proposals and recommendations have been developed on the implementation of the technologies for the development of methodical competences of the future pedagogues of the deaf.*

Key words: *competence, competence, integrative approach, competent approach, future pedagogues of the deaf, methodical competencies, technologies, standard of education, quality of education.*

Kirish.

Jahon oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak surdopedagoglarni kasbiy tayyorlashni takomillashtirishga qaratilgan kreativ va innovatsion rivojlantiruvchi modellari ta’lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Kompetentli yondashuv yangi ta’lim standartining determinatsiyasi sifatida, surdopedagoglarni kasbiy tayyorlash mazmuni, uslublari, usul va vositalarini, shu jumladan, kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasi takomillashtirish, surdopedagogning kasbiy faoliyatining tarkibiy qismlarini takomillashtirish hamda amaliyotga qo‘llash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.Mamalakatimizda bo‘lajak surdopedagogning metodik kompetensiyalarni takomillashtirish, ta’limning har bir bosqichida shaxsning shakllanishi jarayonlarini imkoniyati cheklangan

shaxslarning jamiyatga moslashish va rivojlantirish, integrasiyasini ta’minlash, maktab o‘quvchilarining shaxsiy harakatlarini bilishi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O‘qitishning intensiv texnologiyalarini tizimli faoliyatli yondashuv asosida takomillashtirish, intensiv ta’lim texnologiyalari vositasida metodik kompetensiyalarni, modellarini, bosqichlari, mezonlari va omillarini rivojlantirishga doir ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizda so‘ngi yillarda oliy ta’lim muassasalari talabalarining metodik kompetensiyalarni o‘sishida interaktiv metodlar, tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion loyihalar, mustaqil ta’lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va intensiv ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ta’lim mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko‘tarish hamda uning moddiy-texnik bazasini takomillashtirishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. “Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash”[1] masalasi ustuvor etib belgilandi. Natijada, oliy ta’lim muassasalarida intensiv ta’lim texnologiyalari orqali metodik kompetensiyalarni rivojlantirish sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish samaradorligi oshadi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori va 2018-yil 5-iyundagi 3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Jamiyat rivojlanishining bugungi kundagi bosqichida oliy ta’lim O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ–4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi sifatida namoyon bo‘lyapti. Umumiy qoidalarda konsepsiyaning oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilganligi asoslangan.Quyidagilar oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlar sifatida e’tirof etilgan: mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta’minlash. shbu maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilangan:oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish. Mazkur hujjatda aks ettirilgan kompetentli yondashuvlar, ta’limning an’anaviy kognitiv yo‘nalishlaridan farqli o‘laroq, faol ta’lim faoliyati natijasi sanalanadi va asosiy e’tiborni moslashuvchanlik tamoyilidan, ta’lim muassasalari bitiruvchilarining kompetentlik tamoyiliga siljitadi. Pedagogik va metodik kompetentlik ta’lim jarayonini tadqiq etish, loyihalashtirish va tashkil qilishni, uning, talaba larda aniq kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilganlik tamoyili nuqtai-nazaridan amalga oshirishni taxmin qiladi. Shu sababli, u, o‘z aksini, birinchi navbatda, ta’limning maqsad va natijalarini qayta ko‘rib chiqish, shuningdek mazmunini modernizatsiya qilish, ta’sirning ta’lim usullarini tubdan o‘zgartirish hamda mazkur maqsadga xizmat qiluvchi texnologiyalarni ishlab chiqish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kompetentli yondashuvni tahlilida “kompetensiya” va “kompetentlik” asosiy tushunchalarini mohiyatini tushunib yetish borasida qarama-qarshi fikrlar mavjudligi, mazkur terminologiyani tushunishda yakdil fikrlar yo‘qligini ta’kidlash joizdir. I.A.Zimnyaya “kompetensiya – faoliyatni samarali bajara olish qobiliyati” va “kompetentlik – qo‘yilgan talablarga ko‘ra, mehnat funksiyalarini bajara olish qobiliyati”, deb e’tirof etadi[2]. V.I.Baydenko, N.Xomskiy, V.Xutmaxer kompetensiyani, individning bazaviy sifatiga kiritadilar hamda ishni, uning zarur mezonlariga muvofiq samarali yoki juda yaxshi bajarish sanalishini ta’kidlaydilar. N.V.Kuzminaning ishida, kompetentlik, “shaxsning” integratsiyalashish “qobiliyati” sifatida ko‘rib chiqiladi[3].

O‘zbekiston Respublikasida “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mazmun-mohiyatini o‘rganish va tahlil qilish masalalari A.N.Muslimov “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining

etimologik tahliliga to‘xtalar ekan[4]. Kompetensiyani – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo‘llay olish, kompetentlik tushunchasini, “shaxsning muayyan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha olgan bilim, malaka va ko‘nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati”, – deb ifodalagan. O.A.Qo‘ysinov fikriga ko‘ra, kompetensiya o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganish, shu kun va davr talablarini xis etish, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi[5]. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. B.Xodjayevning fikricha, kompetensiya – sub’ektning maqsadni qo‘yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishiga tayyorligi, boshqacha qilib aytganda, bu sub’ektning muayyan kasbiy masalalarini yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir. Ye.I.Ogarev, N.N.Lobanovaning ta’riflarida, kompetentlik – baholanuvchi toifa va insonni, jamiyat uchun foydali mehnat tizimidagi ixtisoslashtirilgan faoliyat sub’ekti sifatida tavsiflanadi, shaxsning tizimli xususiyati sifatida ko‘rib chiqiladi. N.M.Nazarova surdopedagogning kasbiy faoliyati psixologik, pedagogik va amaliy tarkibiy qismlarni aniqlaydi, N.A.Strogova defektolog-oligofrenopedagogning kasbiy faoliyatining diagnostik, kommunikativ, didaktik, prognostik, transformatsion, tarbiyaviy, tashkiliy, ijtimoiy, konsultativ, Ye.V.Ryazanova defektolog-surdopedogogning kasbiy faoliyatining konstruktiv, loyihaviy, tashkiliy, gnostik, kommunikativ turlarini ajratadilar[6]. Faoliyatning har xilligi defektolog-surdopedagogning lavozim yo‘riqnomalari va talablarida ta’kidlab o‘tiladi, bu yerda uning funksiyalari qatorida harakatlarning zaruriy kasbiy spektri aks ettiriladi: eshitishda nuqsonlari bo‘lgan bolalarni aniqlash, ularning nutqini rivojlantirish; korreksion ishlarini amalga oshirish; bolalarni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilish; metodik va konsultatsion ishlarni o‘tkazish; kar va zaif eshituvchi bolalarga nisbatan insoniy munosabatni, defektologik bilimlarni targ‘ib qilish[6]. Mualliflar tomonidan defektolog-surdopedagogning ishi “an’anaviy o‘qituvchilik faoliyat doirasidan tashqariga chiqib ketadi” va uning qo‘shimcha turlari: ijtimoiy-pedagogik, reabilitatsion, konsultativ, diagnostik, psixoterapevtik, korreksion turlarini amalga oshirishni talab qiladi deb ta’kidlanadi. N.M.Nazarova tomonidan surdopedagog faoliyati ommaviy maktab o‘qituvchisiga nisbatan ancha keng bilimlar spektri, ularning murakkabligi va o‘ziga xos xususiyati, alohida bilimlarning ko‘nikma qatoriga kirish imkonsizligini qayd qiladi, bu pedagogik vaziyatlarning turli-tumanligi, norasmiy yondashuv zarurati, moslashish tezligi bilan tushuntiriladi[7]. Surdopedagogning kompetentligi tarkibida “eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash metodlari va usullarini bilish va egallash” sifatida tavsiflanadigan, ya’ni kognitiv paradigmada namoyon bo‘ladigan metodik kompetentlikni ajratishini qayd qilish muhimdir.

Integrativ yondashuv asosida surdopedagog-o‘qituvchining metodik faoliyati faoliyatning barcha turlarining zaruriy tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi va u o‘z ichiga quyidagilarni oladi: o‘quv jarayonini rejalashtirish, loyihalashtirish, tashhislash va o‘qitish natijalarini to‘g‘ri tuzatish. Surdopedagog kompetentligi tushunchasi va tuzilishi pedagogik kompetentlik doirasida ushbu masalalarni tushunib yetish birdamligida ko‘rib chiqiladi. Shu munosabat bilan surdopedagogning kasbiy pedagogik kompetentligi deganda, surdopedagog kasbiy vazifasini bajarish qobiliyatini tavsiflaydigan shaxs integrativ xususiyatini tushunamiz. U eshitish imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatga moslashish va integratsiyasi maqsadida ularning sog‘ligiga mos bo‘lgan o‘qitish muhitidagi qobiliyat va imkoniyatlariga muvofiq ularning ta’lim olishiga yo‘naltirilgan majmuaviy korreksion-pedagogik faoliyati va muomalasi vazifalarini ajratish va hal qilishga imkon beradigan ma’lum shaxsiy sifatlari, pozitsiyalari, e’tiqodlaridan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak surdopedagoglarni metodik kompetensiyalarni rivojlantirish zaruratini ko‘rsatish uchun olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og‘zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish orqali tegishli yo‘nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

Tahlil va natijalar. Integrativ yondashuv asosida surdopedagog kompetentligi doirasida metodik kompetentlik ajratib ko‘rsatiladi, metodik faoliyat tavsifi beriladi. Tadqiqotlar tahlili uning o‘ziga xos kengligi, korreksion-rivojlantiruvchi yo‘naltirilganlik, kasbiy-metodik vazifalar variativligini ajratishga imkon berdi. Integrativ yondashuv asosida surdopedagog faoliyatining metodik yo‘nalishini o‘rganib, metodik kompetensiyalarni ajratish, ularni shakllantirishning metodologik ta’minotini yaratish zarur. Surdopedagogning metodik kompetensiyalari ixtisoslashtirilgan maktabda o‘quv fanlari yordamida eshitishda nuqsoni bo‘lgan maktab o‘quvchilarini shaxsiy metodik harakatlarini bilish, tushunish, baholash va o‘qitish, korreksiya qilish va rivojlantirish vaziyatlarida ularni sifatli amalga oshirishni bilishdan iborat. Surdopedagog metodik hodisalar mohiyatini tizimli ko‘rish, majmuaviy, tizimli bilimlar, mahorat, bir qator maxsus metodikalar doirasida

faoliyatning umumiy usullarini egallashni talab qiladi. Ushbu o‘ziga xos xususiyatlar o‘qitishning deduktiv yo‘li konsepsiyasini qo‘llash ahamiyatini ta’kidlaydi, unga muvofiq o‘qitishning boshlanishi bo‘lib barcha maxsus predmetli metodikalar uchun tartibga solingan va universal “start pozitsiyasi” bo‘lishi zarur. Ushbu konsepsiya bo‘lajak surdopedagoglarda metodik kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha tizimga asos bo‘ladi. Bundan tashqari, “start pozitsiyasi” ta’rifi kompetensiyalarning faoliyatli hislatini hisobga olishi lozim, bu ularni o‘rganish va shakllantirishga majmuaviy (deduktiv, kompetentli, faoliyatli, tizimli) yondashuvni talab qiladi. Surdopedagogning metodik kompetentligining faoliyatli tarkibiy qismi sifatida metodik kompetensiyalarni egallash tartiboti faoliyatni shakllantirish tartibotiga mos keladi. Ushbu sohada eng yaxshi ishlangani bo‘lib tizimli-faoliyatli yondashuv hisoblanadi, unga muvofiq o‘quv fanini kengaytirish mantiqi voqelikni tizim sifatida tiklaydi. Metodik faoliyat pedagogik faoliyat turi sifatida metodik vaziyatlar tahlili va juda ko‘p sonli metodik vazifalarni yechishga yo‘naltirilgan harakatlarni amalga oshirish bo‘yicha zarur bilimlar, mahorat va usullarni o‘z ichiga oladi. Metodik (o‘quv metodik) faoliyat, uning mazmuni, tartiboti o‘rganish sohasidagi tadqiqotlar aniqlanmagan, biroq pedagogik faoliyat sohasidagi ishlar asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Talabalarda pedagogik (metodik) faoliyatni o‘zlashtirish o‘quv faoliyatni amalga oshirish natijasida sodir bo‘ladi va u pedagogik faoliyat bilan umumiy tuzilishga ega, biroq o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning tartibotida o‘quv vaziyatlari va vazifalari, o‘quv harakatlari ajratiladi. Uning birligi – o‘quv vazifasi sanaladi. Ushbu holatda, kasbiy o‘qitish doirasida u o‘quv vazifasining muhim tavsiflari va pedagogik vazifalarini birlashtirishi lozim.

Maxsus pedagogika nazariyasida surdopedagogning metodik kompetentligi va kompetensiyalari aniq maqsadga qaratilgan tadqiqotga o‘rganilmaganligi bo‘lajak surdopedagoglarda metodik kompetentlik va kompetensiyalarni rivojlantirish tizimini o‘rganishga ehtiyoj borligini dalilladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

2. Mamarajabova Z.N. Adabiy ta’lim jarayonida zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini rivojlantirish. Ped. fan. doktori. dis. (DSc) avtoref…– Toshkent:TDPU.2020. -154 b.

3. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi T.:Fan va texnologiya, 2013 y. 6-10 b.

4. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorliginirivojlantirish texnologiyalari. Ped.fan.doktori...diss. -T., 2019. 43-b.

5. Teshaboyeva F. R. “Oliy ta’limda surdopedagoglarga “Ona tili o‘qitish maxsus metodikasi” modulini o‘qitish samaradorligini oshirish texnologiyalari” Ped. fan. dok. ...diss. – T., 2022.-24 b.

6. Зимняя, И. А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании / И. А. Зимняя. — М.: Исслед. центр пробл. качества подгот. специалистов: 2004. - 40 с

7. Назарова Н. М. Развитие теории и практики дефектологического образования. Сурдопедагогика: История, современные проблемы, перспективы профессиональной подготовки. — М., 1992. — 163 с.

8. Рязанова Е. В. Организация педагогического процесса по формированию эмпатии как нравственного качества личности у будущих учителей-сурдопедагогов - Екатинбург, 2005. -24 b.